Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

01 October – 14 November 2026

UDK 336

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

XUDUDLARDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Farzona Sohibjon qizi Solimahammadova*

Farg‘ona davlat universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

✉ solimahamadovafarzona@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hududlarda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy va institutsional asoslari, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, imtiyozli kreditlar ajratish, investitsiyalarni jalb etish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay biznes muhitini shakllantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Hududlarning iqtisodiy salohiyati, mavjud resurslari va mehnat bozoridagi imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali yoshlar bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot yakunida yoshlar tadbirkorligini boshqarish samaradorligini oshirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning nazariy-amaliy jihatlari asoslangan.

Kalit so‘zlar

Yoshlar tadbirkorligi, hududiy rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, tadbirkorlik faoliyati, yoshlar bandligi, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, investitsiya, biznes muhiti, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik.

Kirish.Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi bandligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hududlarda yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy faolligini oshirish va biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki yoshlar nafaqat mehnat resurslarining muhim qismini, balki innovatsion g‘oyalar, zamonaviy texnologiyalar va yangi biznes loyihalarining asosiy tashabbuskorlarini ham tashkil etadi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasiga alohida e’tibor qaratib: «Biz islohotlarimizning ilk kunlaridan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning orzu va intilishlarini ro‘yobga chiqarishni davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olganmiz», deb ta’kidlagan.[1] Ushbu fikr yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning iqtisodiy tashabbuslarini rag‘batlantirish va mustaqil faoliyat yuritishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratish davlat siyosatining muhim yo‘nalishi ekanligini ko‘rsatadi.Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, mahalliy resurslarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etish, ishsizlik darajasini kamaytirish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Biroq ushbu yo‘nalishda moliyaviy mablag‘lardan foydalanish imkoniy-

[1]Mirziyoyev Sh.M. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan yoshlar bilan uchrashuvdagi nutqi. – 2026-yil 30-iyun.

atlarining cheklanganligi, tadbirkorlik tajribasi va biznes ko‘nikmalarining yetarli emasligi, infratuzilma bilan bog‘liq muammolar hamda hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar kabi masalalar mavjud. Shu sababli yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jarayonini samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekistonda ham yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish, biznes loyihalarini moliyalashtirish, kasbiy va tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2026-yil 30-iyun kuni Yoshlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan uchrashuvda Prezidentimiz yoshlar tadbirkorlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi amalga oshirilgan ishlar natijasida yosh tadbirkorlar soni besh baravar ko‘payib, 287 ming nafardan oshganini ta’kidladi. Bu esa mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini namoyon etadi.Shuningdek, 2026-yilda yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida «Kelajak tadbirkori» dasturini amalga oshirish, yosh tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish hamda hududlarda «Yoshlar biznes inkubatori» faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi tashabbuslar ilgari surildi.[2] Mazkur chora-tadbirlar yoshlarning biznes g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirish uchun muhim tashkiliy-iqtisodiy asos bo‘lib xizmat qiladi.Mazkur jarayonda yoshlar tadbirkorligini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi alohida o‘rin tutadi. Ushbu mexanizm davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi, moliyaviy resurslarni taqsimlash, investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish, axborot-maslahat xizmatlarini tashkil etish va davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mazkur yo‘nalishlarni o‘zaro muvofiqlashtirish yoshlar tadbirkorligi samaradorligini oshirish va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, har bir hududning tabiiy, iqtisodiy, demografik va infratuzilmaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Bunda hududlarning mavjud iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash, istiqbolli tadbirkorlik yo‘nalishlarini belgilash, innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bugungi kunda mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xududlarda yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va uni samarali boshqarish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Shu sababli, mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va rasmiy hujjatlar tahlili maqolaning asosiy nazariy asosini tashkil qiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda xududiy boshqaruv organlarining roli katta. Karimov (2020) va Ibragimov (2019) yozgan asarlarda mahalliy hokimiyatlarning yoshlar siyosatini ishlab chiqish hamda amaliyotda amalga oshirishdagi mas’uliyati ta’kidlanadi. Ular yoshlarga iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar yaratish orqali hududlarda innovatsion g‘oyalar asosida yangi ish o‘rinlari tashkil etish lozimligini qayd etgan.

Yosh tadbirkorlarni moliyaviy rag‘batlantirish vositalari, jumladan, subsidiyalar, kreditlar va soliqlardan imtiyozlar berish kabi iqtisodiy mexanizmlar Nasriddinov (2021) tomonidan ham batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, Egamberdiyeva (2018) davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlikning yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.

Tashkiliy mexanizmlar sohasida Shukurov (2022) yosh tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsion boshqaruv yondoshuvlarini, xususan, zamonaviy axborot texnologiyalari va onlayn platformalarning ahamiyatini ochib beradi. Yusupova (2019) esa mahalliy boshqaruv tizimlarida nodavlat tashkilotlarning roli va innovatsion yechimlarning joriy etilishi haqida fikr yuritadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining 2021-2023 yillardagi hisobotlari va

[2]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha imkoniyatlar belgilandi. – 2026-yil 24-fevral.

Milliy Statistika Qo‘mitasining ma’lumotlari yoshlar tadbirkorligidagi holat va istiqbollarni tahlil qilishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Rasmiy statistikalar yoshlar tadbirkorligi sohasidagi o‘sish tendensiyalarini ko‘rsatib, hududiy boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.Umuman olganda, adabiyotlar va amaliy ma’lumotlar yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun quyidagi tamoyillarning muhimligini ko‘rsatadi: mahalliy hukumatlar va nodavlat sektor o‘rtasida samarali hamkorlik; yoshlarni qo‘llab-quvvatlash uchun iqtisodiy rag‘batlantirish vositalarining diversifikatsiyasi; zamonaviy boshqaruv usullari va innovatsiyalarni joriy etish. Ushbu tamoyillar asosida xududlarda yoshlar tadbirkorligini boshqarish mexanizmidagi kamchiliklarni bartaraf etish va yangi imkoniyatlarni yaratish mumkin.

Shu bilan birga, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat, tijorat banklari, oliy ta’lim muassasalari, xususiy sektor va nodavlat tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish talab etiladi. Bunda oliy ta’lim muassasalari tomonidan biznes loyihalar ishlab chiqish, startap markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va tajribali tadbirkorlarni mentor sifatida jalb etish yoshlarning amaliy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribalar tahlili yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish faqat moliyaviy yordam ajratish bilan cheklanmasligi kerakligini ko‘rsatadi. Aksincha, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik ta’limi, maslahat xizmatlari, raqamli texnologiyalar va bozor infratuzilmasini yagona tizim asosida tashkil etish zarur. Aynan shunday kompleks yondashuv hududlarda yoshlar tadbirkorligini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

XUDUDLARDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH mavzusi bo’yicha **SWOT** tahlili[3]

S – Kuchli tomonlar	W – Zaif tomonlar	O – Imkoniyatlar	T – Tahdidlar
1. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.	1. Moliyaviy mablag‘larning yetishmasligi.	1. Raqamli texnologiyalarni joriy etish.	1. Bozordagi kuchli raqobat.
2. Yoshlarning innovatsion g‘oyalari.	2. Tadbirkorlik tajribasining kamligi.	2. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.	2. Inflyatsiya va iqtisodiy beqarorlik.
3. Imtiyozli kredit va subsidiyalar mavjudligi.	3. Biznes boshqaruvi ko‘nikmalarining yetarli emasligi.	3. Yoshlar startaplarini rivojlantirish.	3. Kreditlarni qaytarishdagi qiyinchiliklar.
4. Yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyati.	4. Hududiy infratuzilmaning sust rivojlanishi.	4. Mahalliy va xalqaro bozorlarga chiqish.	4. Biznes faoliyatining muvaffaqiyatsizlik xavfi.

SWOT tahlili hududlarda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini baholash maqsadida amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, yoshlar tadbirkorligining kuchli tomonlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratilishi hamda yoshlarning innovatsion g‘oyalariga asoslanadi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, tadbirkorlik tajribasining kamligi va biznes boshqaruvi ko‘nikmalarining yetarli emasligi mavjud zaif jihatlar hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va yoshlar startaplarini rivojlantirish muhim imkoniyatlar yaratadi. Biroq bozordagi raqobat, inflyatsiya, iqtisodiy beqarorlik va kredit majburiyatlarini bajarishdagi qiyinchiliklar tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, biznes ko‘nikmalarini oshirish va hududiy infratuzilmani takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Yana bir muhim yo‘nalish — yosh tadbirkorlarning bilim va malakasini oshirishdir. Buning uchun hududlarda biznes-treninglar, maslahat markazlari, mentorlik dasturlari va startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish zarur. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari, tijorat banklari va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga kirib kelishini rag‘batlantiradi.

O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining o‘zgarish dinamikasi (2020–2025-yillar)[4]

[3]O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni, 26-modda. Lex.uz.

[4]O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi SIAT ma’lumotlari, 2.02.01.2436-statistik ko‘rsatkichi.



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, SIAT, 2.02.01.2436.

JADVAL MA’LUMOTLARI TAHLILI

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2020–2025-yillar davomida O‘zbekistonda yakka tartibdagi tadbirkorlar sonida umumiy o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, 2020-yilda 219 112 nafarni tashkil etgan tadbirkorlar soni 2021-yilda 217 207 nafarga kamaygan. 2022-yildan boshlab esa ushbu ko‘rsatkich muntazam o‘sib, 239 069 nafarga yetgan. 2023-yilda 242 849 nafar, 2024-yilda 283 866 nafar va 2025-yilda 298 831 nafarni tashkil etgan.Tahlil natijalariga ko‘ra, 2020–2025-yillar oralig‘ida yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 79 719 nafarga yoki qariyb 36,4 foizga oshgan. Ayniqsa, 2024-yilda o‘sish sur’atining sezilarli darajada jadallashgani kuzatiladi. Bu holat tadbirkorlik faoliyatining kengayishi, biznes yuritish imkoniyatlarining ortishi va iqtisodiy faollikning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar natijasida hududlarda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash, aholi bandligini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etilishi hududlarda iqtisodiy faollikni kuchaytirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, moliyaviy yordamlar va boshqa rag‘batlantirish vositalari muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatida uchrayotgan moliyaviy qiyinchiliklar, biznes yuritish tajribasining yetishmasligi, bozor raqobati va hududiy infratuzilmadagi tafovutlar mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-son «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni. Lex.uz.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-60-son «Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. Lex.uz.

3.OECD/European Commission. (2023). The Missing Entrepreneurs 2023: Policies for Inclusive Entrepreneurship and Self-Employment. OECD Publishing, Paris. OECD nashri.

4.OECD. (2024). OECD Youth Policy Toolkit. OECD Publishing. OECD nashri.

5O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT statistik ma’lumotlar bazasi. Rasmiy statistika portali.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. Lex.uz.

2030»

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi 426-son «Yoshlar tadbirkorligini

hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni moliyalashtirish tartibini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. Lex.uz.

8. World Bank. (2021). Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges. World Bank, Washington, DC. Jahon banki nashri